

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI O'QITISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Shaxakimova Mavjuda Tashpolatovna

Muhammad al Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

E-mail: shaxakimova65@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilining bugungi kundagi ahamiyati, hamda texnika oliy ta'lim muassalarida ingliz tilini o'qitishda o'qituvchilar va talabalar duch keladigan qiyinchiliklar va ularni bataraf qilishda yordam berishi mumkin bo'lgan ayrim echimlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ingliz tilining ahamiyati, qiyinchiliklar, muammolar, echimlar, til tuzilishidagi farqlar, umumiy maqsadlar uchun ingliz tili (EGP), Fan va texnologiya uchun ingliz tili (EST), Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili yoki ingliz tili maxsus maqsadlarda (ESP).

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF TEACHING ENGLISH IN TECHNICAL TERTIARY EDUCATION

Abstract: The importance of the English language today, the challenges faced by teachers and students in teaching English in technical higher education institutions are considered and some solutions that can help overcome them are given in this article.

Key words: importance of English language, EGP-English for general purposes, EST- |English for science and technology, difficulties, problems, solutions, differences between sentence structures, ESP -English for specific purposes or Professionally-Oriented English.

Bugungi kunda ingliz tili hayotning barcha jabhalarida, ayniqsa ta'lim, ilm fan va ishlab ciqarish, mijozlarga xizmat ko'rsatish va inson resurslari sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tiliga talab xalqaro munosabatlar, ommaviy axborot vositalari, aloqa, sayohat va hayotning boshqa jabhalarida ham juda kattadir. Aksariyat innovatsiyalar asosan ingliz tilida chop etilayotganligi sababli, ingliz tilini o'rganish o'z bilimlarini yangilamoqchi bo'lganlar uchun juda muhimdir. Texnik ta'lim sohasida qariyb barcha manbalar faqat ingliz tilida ekanligi ham sir emas. Fan va texnologiya taraqqiyoti tufayli har yili yuzlab so'zlar ingliz tili lug'atiga qo'shilmogda. O'z navbatida bu kelgusida sohada yetuk mutaxasis bo'lishni orzu qilgan yoshlardan ingliz tili bilimlarini muntazam va izchil oshirib borishlarini taqoza etadi.

Dastlab Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, keyinchalik O'zbekistondagi qator oliy ta'lim muassalarining ta'limning kredit tizimiga o'tganligi munosabati bilan yo'lga qo'yilgan akademik mobillik xorijiy tilga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi. Dunyo yagona ta'lim standartiga mos bilim berish ingliz tilining butunlay yangi zamonaviy andozalarga mos o'quv dasturini tuzish, aniq maqsadlarga yo'naltirilgan o'quv adabiyotlari, darsliklar yaratilishini taqoza etadi. O'quv dasturi hamda o'quv adabiyotlarining hayotiyliigi va talabalarning aniq ehtiyoji bo'yicha tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, o'qituvchilar ham bir necha sabablarga ko'ra ingliz tilini o'qitishda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishmogda. Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassalarida ingliz tilini o'qitish bo'yicha o'qituvchilar va talabalar duch keladigan qiyinchiliklar va ularni bataraf qilishda yordam berishi mumkin bo'lgan usullari ko'rib chiqiladi.

Birinchidan, texnika oliy ta'lim muassasalariga kirayotgan talabalarning aksariyati qoniqarli darajada ingliz tili malakasiga ega emas va ularning ingliz tilini bilish darajasi odatda davlat ta'lim standartidagi bakalavr talabalari darajasiga qo'yilgan talabdan ancha past ekanligidir. Ko'pgina texnik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun umumiy maqsadlar uchun ingliz tili (EGP-English for general purposes)ning o'zi qiyin, fan va texnologiya uchun ingliz tili (EST- English for science and technology) haqida gapirmaasa ham bo'ladi. Talabalarning EGP va EST

kompetentsiyalarini qanday yaxshilash ayni paytda ingliz tili o‘qituvchilari hal qilishi kerak bo‘lgan birinchi muammoga aylandi.

Ikkinchidan, atrofimizda haqiqiy xorijiy til vakillarining kamligi natijasida ingliz tilining sun’iy muhitda o‘rgatilishi ham masalani murakkablashtiruvchi omillardan biridir.

Uchinchidan, ingliz tili va o‘zbek tili til ko‘nikmalaridagi keskin farqlar. Masalan, gaplarni ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilish rus va ingliz tillarining gapdagi so‘z tarkibi o‘xshash bo‘lganligi uchun o‘zbek tiliga tarjima qilishga qaraganda ancha oson kechgani holda, o‘zbek tilida tahsil olayotgan talabalar uchun ancha qiyinchilik kasb etadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan masalalarning yechimlariga to‘xtalib o‘tsak.

Birinchi navbatda hozirgi kunda texnika oliy ta’lim muassasalarida asosiy e’tibor ESP -English for specific purposesga qaratilmoqda. Buning sababi talaba o‘zi uchun qiziq bo‘lgan mavzuni boshqa umumiy mavzularga qaraganda tezroq o‘zlashtiradi. Ya’ni, texnika oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan talabaga, bizning holatimizda bu axborot texnologiyalari universiteti talabasiga Culture shock haqida gapirish yoki o‘qishdan ko‘ra electric shock haqida berilgan matn tushunarliroq bo‘ladi va talaba tomonidan tezroq o‘zlashtiriladi. Yoki “traditions and habitsof different cultures” o‘rniga “Computer hardware and software” yoki “Networking hardware” mavzulari ko‘proq tanish va ular so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan foydalanmasdan turib tushunib olishadi va bu o‘z navbatida tilni tezroq va osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Bunda asosiy e’tibor matnning:

- qiziqarli bo‘lishiga e’tibor qaratilishi lozim, ya’ni talabaga zerikarli bo‘lgan narsalarni o‘qitish va gapirtirishga vaqt sarflash kerak emas. Ularni qiziqitirmaydigan narsalarni o‘qish yoki ular haqida gapirishdan hech qanday ma’no yo‘q.

- tushunarli bo‘lishi, ya’ni juda qiyin bo‘lgan narsani o‘qish asabiylik holatini keltirib chiqaradi. O‘qituvchi tanlagan matn yoki mavzu talabaga tushunarli bo‘lishiga erishish lozim. Tushunarli matn - bu siz harakat qilishingiz kerak bo‘lgan narsadir. Tashlangan mavzuga talaba beixtiyor qo‘shilib ketishiga erishish kerak. Ba’zan mavzu

qiziqlicidan tilni bilmaydigan talabalar ham bahs-munozaraga qo‘shilib ketadi. Ko‘pincha ona tilida gapirib yuborish holatlari uchraydi, bunday hollarda o‘qituchi talaba bilmagan so‘zlarni o‘rtoqlaridan so‘rab olib, fikrini bayon qilishi mumkinligini aytadi. Bu **peer aid** yoki **peer support** usuli deyiladi.

- til qanday maqsadda o‘rganilayotgani alohida inobatga olinishi kerak. Misol uchun, agar siz IELTS imtihonini topshirmoqchi bo‘lsangiz, IELTS namunalarini o‘qing. Yoki axborot texnologiyalarini ingliz tilida o‘rganishingiz kerak bo‘lsa, shunga oid matn va mavzularni tanlash lozim.

- Ikkinchi masala ya’ni ingliz tilining sun’iy muhitda o‘rgatilishi yoki o‘rganilayotgani. Albatta atrofda hamma ingliz tilida gapirib turgan muhitda ingliz tilini o‘rganish bilan, haftasiga ikki soat faqat darsda o‘qituvchi yoki gruppadoshlar bilan muloqat qilib tilni o‘rganishning orasida katta farq bor. Lekin hozirgi kunda bu muammoni osongina hal qilsa bo‘ladi. Faqat talabalarga to‘g‘ri yo‘nalish berish kerak. Axborot kommunikatsiya vositalari va internetdan foydalangan holda xorijiy talabalar bilan do‘stlashish va muloqat qilish mumkin.

- Bundan tashqari turli debatlar, round table discussionlar yordamida talabaning nutqini ravon qilishga erishish mumkin. Hozirgi kunda TATU talabalariga o‘z sohasiga oid mavzulardan birini tanlash va taqdimot o‘tkazib berish mustaqil ish sifatida berilmoqda. Bu amaliyot yaxshi natija ko‘rsatmoqda. Chunki talaba oldindan tayyorlanib kelgani uchun o‘ziga ishonchi ortadi va erkin gapiradi. Mavzuga oid yangi so‘zlarni o‘rganadi va mavzu yuzasidan savol- javob o‘tkazadi. Bu usul ham talabalarning xorijiy til malakalarini oshirishda yaxshi samara bermoqda. Bundan tashqari talabalar nutqi ravonligini oshirish uchun talabalarga Gabriella Gabbyning “Shadoving” usuli ham tavsiya etiladi. Bunda talaba o‘ziga qiziq bo‘lgan mavzudagi audio materialni eshitadi va eshitayogan materialni so‘zma so‘z takrorlaydi. Kichik materiallardan boshlash tavsiya etiladi. Hatto bitta gapni qayta qayta takrorlash ham mumkin toki ravon talaffuzga erishmaguncha. Bundan tashqari “Cake” ilovasi ham kuniga 10 minut vaqt sarflash bilan nutqni ravon qilish yangi so‘ va iboralarni o‘rganishga yordam beradi.

Uchinchi masala, ingliz tili va o‘zbek tili gap tuzilishidagi farqlar natijasida kelib chiqadigan muammoni qanday bartaraf etish mumkin? Buning uchun boshlangich bosqichda Dmitriy Petrovning “Полиглот Английский за 16 часов ” seriyali videosida berilgan quyidagi jadvaldan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu jadvalga ko‘ra talabalar oddiy darak gap, so‘roq gap va inkor gaplarning tuzilishini o‘rganib nutqda avtomatlashtirib oladi va shu andozada barcha gaplarni tuzishga o‘rganadi. Bu talabalar bilan sinalgan va yaxshi samara beradigan usullardan biridir.

		ВОПРОС		УТВЕРЖДЕНИЕ		ОТРИЦАНИЕ		
WILL	I YOU WE THEY HE SHE	LOVE ?	I YOU WE THEY HE SHE	WILL LOVE	I YOU WE THEY HE SHE	WILL NOT LOVE	Б У Д У Щ Е Е Н А С Т О Я Щ Е Е П Р О Ш Е Д Ш Е Е	
	I YOU WE THEY HE SHE	LOVE ?	I YOU WE THEY HE SHE	LOVE LOVES	I YOU WE THEY HE SHE	DON'T LOVE DOESN'T LOVE		
	I YOU WE THEY HE SHE	LOVE ?	I YOU WE THEY HE SHE	SAW	I YOU WE THEY HE SHE	DID NOT LOVE		

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida sanab otilgan muammolar va ularning yechimlari birinch navbatda texnika oliy yurti talabalarining ingliz tilini o‘rganishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Maqolada tilga olingan ilova va dasturlar, shuningdek videolar Internetdagi minglagan ta’limiy dasturlardan bir nechasigina xolos. Mazkur usullar talabalar bilan sinalgan va samara berganligi uchun tavsiya etildi. Tavsiya etilgan echimlar texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining ingliz tilini o‘rganishida foydali manba bo‘lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mikhailov, V.V.. (2018). Features of teaching English language in a technical university. Perspektivy Nauki i Obrazovania. 34. 145-149.

2. Abdullayeva N. I. Method of teaching English in technical institutes // International scientific review. 2019. №LXIV. URL:

3. 5 Simple Steps to English Fluency.

https://www.youtube.com/watch?v=mMk_MC4xJGM

4. <https://mycake.me/>

5. Д. Петров. Полиглот Английский за 16 часов.

<https://www.youtube.com/watch?v=9bIL5gYzsaA>

